



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TURKIYA BILAN FAOL PARLAMENTLARARO HAMKORLIKNI DAVOM ETTIRISH MUHIMLIGINI TA’KIDLADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13-iyul kuni Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi Tashqi aloqalar qo‘mitasi raisi Fuat Oktay boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



O‘zbekiston bilan Turkiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida Fuat Oktay O‘zbekiston yetakchisiga uning Prezident

saylovidagi ishonchli g‘alabasi munosabati bilan qardosh Turkiya Prezidenti va xalqining samimiy tabriklarini yetkazdi.

Turkiya tomoni O‘zbekiston Prezidentining aholi farovonligini oshirish va

mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlashga qaratilgan pragmatik siyosatini yuksak baholashi va to‘liq qo‘llab-quvvatlashi qayd etildi.

Muzokaralar chog‘ida parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish hamda

oliy darajada qabul qilinayotgan qarorlar ijrosi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari parlamentlararo hamkorlik guruhlarini tashkil etish va

tegishli “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish yuzasidan erishilgan kelishuvlarni o‘qishladi.

Shuningdek, uchrashuvda o‘zaro savdo hajmini oshirish va aviaqatnovlarni ko‘paytirish, istiqbolli investitsiya

loyihalarini ilgari surish, qo‘shma madaniy-gumanitar tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha muvofiqlashgan choralar ko‘rilishi muhim ekani ta’kidlandi.

O‘ZA

QATAR AMIRI O‘ZBEKISTON PREZIDENTINI SAYLOVDAGI ISHONCHLI G‘ALABASI BILAN TABRIKLADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan 13-iyul kuni o‘tkazilgan telefon orqali muloqotida oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish, yirik investitsiya loyihalarini tayyorlashni jadallashtirish va ularni ilgari surish masalalari batafsil muhokama qilindi.

Qatar Amiri O‘zbekiston yetakchisini bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida qozongan ishonchli g‘alabasi bilan dildan qutladi.

Do‘st Qatar xalqi nomidan O‘zbekiston rahbari va ko‘p millatli xalqiga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik, barqaror taraqqiyot va ravnaq tiladi.

Yetakchilar joriy yil 5-6-iyun kunlari Qatar Amirining O‘zbekiston Respublikasiga davlat

tashrifi davomida qabul qilingan bitim va kelishuvlarning so‘zsiz ijrosini ta’minlash bo‘yicha zarur choralar ko‘rishga kelishib oldilar.

Yaqin fursatda qo‘shma Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi hamda ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari ishtirokida biznes forumini o‘tkazish muhimligi ta’kidlandi.

O‘ZA



MUNOSABAT

Bugun mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash, yurtimizni dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar dunyo hamjamiyati tomonidan ham e’tirof etilmoqda.

ZAKIYLIK SAN’ATIGA YUKSAK E’TIBOR

Keyingi yetti yilda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar xalqimiz hayotida yaqqol aks etayotgani rost. Ayniqsa, bu davrda uzoq-yaqin xorijiy davlatlar bilan madaniy-gumanitar aloqalarimiz butunlay yangi bosqichga ko‘tarildi. Zero, o‘zga xalqlarning biz bilan ushbu yo‘nalishda hamkorlik qilishga qiziqishi juda yuqori. Chunki donishmand xalqimiz tomonidan ming yillar davomida yaratilgan boy va bebaho madaniy merosimizning dovrug‘i yetti iqlimda dong taratgan, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ayni paytda madaniy merosimiz namunalarini qayta tiklash va ularni yanada boyitishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Buning zaminida Uchinchi Renessansga poydevor

qo‘yishdek ezgu maqsad mujassam ekani hech kimga sir emas.

Milliy madaniyatimiz rivojida yuksak insoniy g‘oyalarni tarannum etuvchi sodda va maf-tunkor xalq og‘zaki ijodining ahamiyati yuqori hisoblanadi. Bu borada, ayniqsa, milliy askiya va qiziqchilik san’ati alohida o‘rin tutadi. Ushbu janr o‘zbek xalqi orasida uzoq davrlardan buyon mavjud bo‘lib, asosan, XV asrda alohida janr sifatida shakllangan. She’riyat mulki-ning sultoni Hazrat Alisher Navoiy ham ushbu xalqona san’at xususida to‘xtalib, o‘z davrining mashhur askiyachisi hisoblangan Muhammad Badaxshining ijodiga yuksak baho beradi va uni “askiyachilarning piri” deb ataydi.

Davomi 2-betda



BUYUK O‘ZBEK YO‘LI



Birinci maqolada ijtimoiy mo‘ljall fenomenini, uni aniq olish va maqsadga erishish yo‘llari xususida fikr yuritgan edik. Endi masalaning ikkinchi jihatiga o‘tsak. Jamiyat ijtimoiy mo‘ljallga erishishining yo‘llari juda ko‘p. Biroq ana shu yetuklikka yetishimizga bugungi kunda ayrim yoshlarimiz tomonidan ma‘naviy idealni topishdagi o‘ziga xos muammolar xalaqit qilayotganga o‘xshaydi, nazarimizda. Boshqacha aytganda, jamiyat ijtimoiy mo‘ljali ma‘naviy idealni bilan uzviy bog‘lanmas ekan, bu borada muayyan yutuqqa erishish o‘ta og‘ir. Xo‘sh, ma‘naviy ideal deganda nimani tushunish mumkin?

Taniqli faylasuf olim Qiyom Nazarov ma‘naviy ideal deganda shaxs va jamiyat ma‘naviyatini shakllantiruvchi, yo‘naltiruvchi va harakatlantiruvchi, uni savob ishlar, bunyodkorlikka safarbar etuvchi ezgu g‘oya, orzu-maqsad va ijobiy namunalar majmuini ifodalovchi tushunchani nazarda tutadi.

Darhaqiqat, ma‘naviy ideal shaxsning shakllanishi juda murakkab jarayon hisoblanadi, bunda shaxs va jamiyat manfaatlari uyg‘unlashuvi ham alohida ahamiyatga ega. Ideal jamiyatni barpo etish esa undan ham og‘irroq. Iqtisodiy jihatdan farovon, mo‘l-ko‘lchilikka erishgan davlatlarni barpo etish mumkin. Bugun jahon xaritasida bunday mamlakatlar borligini barchamiz ham bilamiz.

Ammo gap faqat inson moddiy ta’minoti, mamlakatning iqtisodiy ko‘rsatkichlari xususida ketayotgani yo‘q. Biz tom ma‘nodagi ideal jamiyat to‘g‘risida fikr yuritir ekanmiz, avvalo, shu jamiyatning ma‘naviy-ma’rifiy il-

IJTIMOY MO‘LJAL VA MA’NAVYI IDEAL MASALALARI (Ikkinchi maqola)



dizlari, ularning fuqarolar kamoloti yo‘lidagi ta’sir kuchini e’tiborga olishimiz muhim. Zero, ideal jamiyatning poydevori, eng avvalo, uning ma‘naviy ilidizlari bilan belgilanadi.

Ma‘naviy ideal jamiyat, birinchi navbatda, o‘zining ma‘naviy qiyofasiga ega, mukammallik darajasi oliy maqomga yetgan, yuksak axloqiy mezonlar bilan bezalgan jamiyatdir. Shu ma’noda, biz ma‘naviy ideal deganda yuksak axloq, odob, bilim, iste’dod, aql-idrok va tafakkur zaminida insonda shakllanadigan ishonch, e’tiqod, ixlos, vijdon, imon kabi fazilatlarni nazarda tutamiz.

Har bir xalqning o‘z ma‘naviy idealari mavjud. Mazkur idealar u yoki bu millat va elatni iqtisodiy farovonlikka yetaklasa, boshqasini ijtimoiy hamkorlikka, yana

birini siyosiy barqarorlikka boshlaydi. Xo‘sh, biz, o‘zbeklarning milliy-ma‘naviy idealimiz qay yo‘sinda shakllangan, ularning tarkibiy qismlarini nimalar tashkil etadi?

Keling, yaxshisi ko‘hna tarixga murojaat qilaylik. Aslida, bizning tariximiz milliy-ma‘naviy idealimizni qidirish, shakllantirish va ularni real hayotga joriy etishdan iborat. Ko‘hna “Avesto”, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning o‘nlab asarlari, Birinchi va Ikkinchi Renessans davri mutafakkirlarining deyarli barcha tadqiqotlari, jadid ma’rifatparvarlarining nodir kitoblari ma‘naviy idealni yaratish yo‘lidagi izlanishlar, deiyishga haqqimiz bor.

Davomi 3-betda



BUGUNNING GAPI



ZAMINIMIZ SAXOVATI, MIRISHKORLAR SHIDDATI 8 million tonnali xirmon uyuldi!

Saraton suvidan sippqorgan ekin bo‘liq bo‘ladi. Bobodehqonlarimizning takroriy ekin ekishda o‘ziga xos vaqt tarozisiga aylangan ushbu iborasi, ta’bir joiz bo‘lsa, boy tajriba hosilasi zaminida katta ma’no mujassam.

Binobarin, bu davrda qadalgan urug‘ yerning issiq taftida unib chiqib, o‘zini tutib oladi, asad quyoshida barq urib, kuz havosining qay darajada kelishidan qat’i nazar, pishib yetilishga ulguradi. Shu bois, ayni kunlarda yurtimiz dalalarida ish qizg‘in. Bir tomondan,

bu yilgi g‘alla o‘rimi mavsumining yakuniy bosqichi kechayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan, bug‘doydan bo‘shagan dala maydonlariga takroriy ekin ekish avj pallasiga kirgan.

Davomi 4-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



DAVLAT DASTURI — AMALDA

PARLAMENT DIPLOMATIYASI

O‘zbekiston Respublikasining ikki va ko‘p tomonlama hamkorligining muhim mexanizmi

Qodir JO‘RAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Xalqaro ishlar va
parlamentlararo aloqalar
qo‘mitasi raisi o‘rinbosari

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning mintaqaviy va xalqaro jarayonlardagi ishtiroki sezilarli darajada yuksaldi. O‘zbekiston oldingi davrlarga nisbatan izchil, faol va pragmatik tashqi siyosat olib bormoqda.



rolini yanada kuchaytirish maqsadida Parlament diplomatiyasi konsepsiyasi qabul qilindi.

Mazkur konsepsiyada chet davlatlar parlamentlari bilan hamkorlikni rivojlantirish, ularning qonun ijodkorligi tajribasini o‘rganish bo‘yicha parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash, xalqaro parlamentlararo tashkilotlar faoliyatida Oliy Majlisning faol ishtirokini ta‘minlash, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar to‘g‘risida xalqaro hamjamiyatni xabardor qilish, davlatimiz tashabbuslarini ilgari surish kabi ustuvor vazifalar belgilandi.

2020-yilda yana bir hujjat — xorijiy mamlakatlarning parlamentlari bilan hamkorlik aloqalarini yanada takomillashtirish maqsadida Oliy Majlis palatalari kengashlarining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining xorijiy mamlakatlar parlamentlari bilan hamkorlik bo‘yicha guruhlar va komissiyalarining ishlarini faollashtirish va amaliy hamkorlikni kengaytirish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori qabul qilindi.

Shuningdek, parlamentlararo diplomatiyani rivojlantirishga va parlamentlararo tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirishga mas‘ul bo‘lgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari lavozimi ta‘sis etildi. Ushbu yangi institutning joriy qilingani xorijiy davlatlar parlamentlari va xalqaro parlamentlararo tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, xorijiy mamlakatlarning parlamentlari bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalari ancha kengaydi.

Oliy Majlisda O‘zbekistonga do‘st va hamkor davlatlar parlamentlari bilan hamkorlik qilish bo‘yicha parlamentlararo guruhlar va komissiyalarining tashkil etilishi mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar to‘g‘risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish, parlamentlararo muloqotni chuqurlashtirish, qonun ijodkorligi sohasida o‘zaro tajriba almashish, O‘zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini keng jalb qilish uchun yaqin aloqalar o‘rnatish, xalqaro doiradagi konferensiya, seminar va davra suhbatlarini yuqori darajada o‘tkazish hamda ularning natijadorligini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Oliy Majlisning xorijiy mamlakatlar parlamentlari bilan hamkorlik bo‘yicha guruhlar va komissiyalari son jihatdan ham, sifat jihatdan ham keskin oshganini kuzatish mumkin. Bugungi kunda parlamentlararo hamkorlik guruhlar xorijiy davlatlar qonun chiqaruvchi organlari bilan aloqalarni rivojlantirish uchun doimiy maydon vazifasini o‘tamoqda va o‘z navbatida, chet ellik hamkorlar bilan ochiq, konstruktiv va jonli muloqot olib borishning qulay mexanizmiga aylanmoqda.

Agar 2015-2019-yillar davomida jami 28 davlatning parlamentlari bilan hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruhlar faoliyat olib borgan bo‘lsa, 2020-yilda bu raqam 43 tani, 2023-yilga kelib esa 57 tani (56 ta davlat va 1 ta Yevropa Ittifoqi parlamentlari) tashkil etganini ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va xorijiy mamlakatlar parlamentlari quyi palatalari bilan tashkil etilgan jami 21 parlamentlararo tuzilmalar, 19 hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruhlar va yuqori darajadagi Qozog‘iston Respublikasi Parlamenti Majlisi o‘rtasidagi parlamentlararo hamkorlik kengashi hamda Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisining Davlat Dumasi bilan hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo komissiyasi shular jumlasidan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati hamkorligida jami 36 ta parlamentlararo tuzilma, jumladan, 35 xorijiy mamlakat parlamentlari bilan tuzilgan hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruhlar va Yevropa Ittifoqi parlamentlari bilan “O‘zbekiston — Yevropa Ittifoqi” parlament hamkorligi qo‘mitasidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi delegatsiyasi tashkil etilgan. Ushbu parlamentlararo tuzilmalarning 26 tasiga Oliy Majlis Qonunchilik

palatasi deputatlari va 10 tasiga Oliy Majlis Senati a‘zolari rahbarlik qilmoqda.

Uchinchidan, Oliy Majlisning xalqaro parlament uyushmalaridagi ishtiroki ancha faollashdi.

Bugungi kunda Oliy Majlis qator parlamentlararo uyushmalar ishida a‘zo yoki kuzatuvchi maqomida O‘zbekistonning milliy manfaatlarini himoya qilishga hamda ilgari surishga asoslangan tashqi siyosiy faoliyatning faol ishtirokchisiga aylandi.

So‘nggi 6 yilda Oliy Majlis Parlamentlararo Ittifoq (PAI), Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi parlamentlararo assambleyasi (MDH PA), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining parlament assambleyasi (YEXHT PA) kabi qator nufuzli parlamentlararo uyushmalarga a‘zo bo‘lib kirganini alohida ta‘kidlash joiz.

Ma‘lumki, Parlamentlararo Ittifoq dunyo mamlakatlari parlamentlarini siyosiy jihatdan birlashtirib turuvchi dunyodagi eng kessa va tajribali xalqaro uyushma (1889-yilda tashkil topgan) hisoblanadi. PAI parlament muloqoti va hamkorligi asosida tinchlik, demokratiya va barqaror rivojlanishni mustahkamlash uchun ko‘maklashishga intilayotganini inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2017-yil 13-oktabrdan e‘tiboran global parlamentlar hamjamiyatida Parlamentlararo Ittifoqning teng huquqli va to‘laqonli a‘zosi sifatida o‘z ishtirokini tiklash to‘g‘risida qaror qabul qildi.

2020-yil 30-yanvarda PAI ijroiya qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari, tajribali diplomat, yetuk olim va akademik Akmal Saidov nomzodini PAI vitse-prezidenti etib tayinladi. O‘z taraqqiyoti yo‘lida shaxdam qadamlar bilan taraqqiyot etib borayotgan O‘zbekistonning PAI kabi nufuzli xalqaro parlament tashkiloti boshqaruv organiga saylanishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy-siyosiy islohotlar e‘tirofidir.

O‘zbekiston a‘zo bo‘lib kirgan muhim parlamentlararo tuzilmalardan biri bu, shubhasiz, MDH PA hisoblanadi. Mazkur parlamentlararo uyushma MDH bilan bir vaqtda tashkil etilgan bo‘lib, u o‘z faoliyatining ilk kunlaridanano parlamentlarning o‘zaro hamkorligi uchun o‘ziga xos platformaga aylandi. Chunki endigina mustaqillikka erishgan mamlakatlar oldida o‘z huquqiy tizimlarini tubdan isloh qilishdek ulkan vazifa turar va MDH PA ana shu muhim vazifani hal qilish

da model qonunlar ishlab chiqish orqali munosib hissa qo‘shdi va a‘zo mamlakatlarning milliy qonunchiligini uyg‘unlashtirish yo‘lida muhim sa‘y-harakatlarni amalga oshirdi.

Bugungi kunda O‘zbekiston MDH PA ishida faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, 2022-yilning 27-28-oktyabr kunlari Parlamentlararo assambleyaning navbatdagi 54-yalpi majlisi Samarqand shahrida bo‘lib o‘tdi.

Ta‘kidlash joizki, ushbu tashkilotning o‘ttiz yillik tarixida Assambleyaning yalpi majlisi ilk marta O‘zbekistonda o‘tkazildi. Yalpi majlisda bir qator muhim masalalar muhokama etildi. Xususan, parlament a‘zolari tomonidan saylov, referendum va ularni kuzatish to‘g‘risidagi, xavfsizlikni ta‘minlash, intellektual huquq, ilmiy-texnologik, ijtimoiy masalalar va yoshlarga oid siyosatga doir namunaviy qonunlar hamda boshqa tavsiyaviy hujjatlar ko‘rib chiqildi. Shuningdek, 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan MDHda namunaviy qonun ijodkorligining istiqbolli rejasini loyihasi va MDH PANing kelgusi yil uchun ish rejasini tasdiqlandi.

Yalpi majlis davomida ko‘rib chiqilgan “Saylovlar va referendumlar ustidan xalqaro kuzatuv to‘g‘risida”gi, “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi, “Davlat va munisipal (kommunal) mulkni xususilashtirish to‘g‘risida”gi va boshqa qator model qonunlarning loyihalari Oliy Majlis tomonidan bildirilgan takliflar asosida takomillashtirilib qabul qilindi.

Samarqandda bo‘lib o‘tgan yalpi majlis shuni ko‘rsatdiki, MDH PA o‘z faoliyatini davomida MDH makonida parlamentarizmini rivojlantirish, Hamdo‘stlik davlatlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, demokratik jarayonlarni va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini jonlantirishga doir dolzarb masalalar bo‘yicha qo‘shma muhokamalarni o‘tkazish va qarorlar qabul qilishda samarali maydon hisoblanadi.

O‘zbekiston a‘zo bo‘lgan muhim parlamentlararo uyushmalardan yana biri YXHT PA hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur uyushma parlamentlararo muloqot va hamkorlikni amalga oshirishda, Markaziy Osiyoda transmilliy tahdidlarga qarshi kurashish, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, ishbilarmonlik va sarmoyaviy muhitni yaxshilash kabi masalalar bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ikki tomonlama hamkorlik aloqalari YXHT mintaqasida demokratik g‘oyalarni ilgari surishda o‘z samarasini bermoqda.

YXHT PA ikki tomonlama hamkorlik 2017-yildan, ya‘ni O‘zbekiston ushbu uyushmaga a‘zo bo‘lib kirganidan so‘ng ancha faollashdi. Oliy Majlis vakillari YXHT PA majlislarida doimiy asosda ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, 2022-yil 4-6-iyul kunlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi parlament delegatsiyasi Buyuk Britaniyada bo‘lib o‘tgan YEXHT Parlament assambleyasining

yo‘zgi sessiyasi ishida ishtirok etdi. Unda sessiya ishtirokchilariga mamlakatimizda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar haqida ham keng ma‘lumotlar berildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi parlament delegatsiyalari Turkiya tilli davlatlar Parlamentlararo assambleyasi, Osiyo-Tinch okeani parlamentlararo forumi, Osiyo parlament assambleyasi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti Parlament assambleyasi kabi parlamentlararo uyushmalar doirasida o‘tkazilayotgan turli tadbir va anjumanlar ishida kuzatuvchi maqomida faol ishtirok etib kelmoqda.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalardagi majburiyatlari bajarilishi ustidan parlament nazorati tobora kuchaymoqda.

Chunonchi, O‘zbekistonda Barqaror rivojlanish sohasida milliy maqsad va vazifalarga erishish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda va bu masalada O‘zbekiston parlamentining ham alohida o‘rni bor.

Barqaror rivojlanish maqsadlarini bajarishda parlament, hukumat va fuqarolik jamiyati institutlarining amaliy hamkorliklari yo‘lga qo‘yishga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarning 2030-yilgacha bo‘lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish bo‘yicha parlament komissiyasi tashkil etildi. Oliy Majlis parlament nazoratining ta’sirchan shakllari va usullaridan foydalanigan holda 2030-yilgacha barqaror rivojlanishning boshqa milliy maqsad va vazifalarini amalga oshirishga ham doimiy e‘tibor qaratib kelmoqda.

Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda parlament nazoratining zamonaviy usullarini qo‘llash va parlamentariylar tomonidan xalqaro tashkilotlar imkoniyatlaridan foydalanish, shubhasiz, barqaror rivojlanish bo‘yicha milliy maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarish, xalq farovonligi va mamlakatning xalqaro obro‘sinini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa sifatida shuni ta‘kidlash joizki, so‘nggi yillarda parlamentimiz mamlakat tashqi siyosatining faol ishtirokchisiga aylandi. Parlament diplomatiyasining geografiasini kengayib, natijadorligi oshmoqda. Ushbu holat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida uzviy aloqalarni o‘rnatish imkonini shakllantirib, xorijiy davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro do‘stona munosabatlarni mustahkamlashga har tomonlama yordam beradi.

Hozirgi vaqtda Oliy Majlis xalqaro aloqalarining keng ko‘lamli dasturi mamlakatimiz tashqi siyosiy yo‘lida muhim tarkibiy qismi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining manfaatlarini ham ikki tomonlama asosda, ham xalqaro parlamentlararo tuzilmalar faoliyatini doirasida dadil ilgari surish imkonini bermoqda.



MUNOSABAT

Nodirbek SAYFULLAYEV,
professor

Boshlanishi 1-betda

Odatda askiya xalq sayillarida, turli bayramlar va to‘y-tomoshalarda ijro etilgan. Bunday kezlarda ikki yoki bir necha kishi davraga chiqib, el-ulus ko‘z o‘ngida hazil-mutoyiba ohangida o‘zaro bahsga kirishgan. Fikrlar kurashidan iborat bo‘lgan bunday aytishuvlarda so‘z o‘yini, kesatig‘, qochirim, o‘xshatish, bo‘rttirish, mobolag‘a singari badiiy ifoda vositalaridan muhirona foydalanilgan.

Xalqimizning yaqin tarixida Erka qori Karimov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Tur-sun buva Aminov, Oxunjon qiziq, Mamajon Madaminov, Jo‘raxon Sultonov, G‘amajon Toshmatov, Abdulhay Maxsum Qozoqov, G‘ulomjon Ro‘ziyoyev, Abulqosim To‘ychiyev, Hasanboy Sultonov, Ergash Karimov, Muhiddin Darveshov, Jo‘raxon Po‘latov, Ne‘matjon Toshmatov kabi el ardog‘idagi badiiy so‘z ustalari o‘zlarining samarali ijodi bilan askiya va qiziqchilik san‘ati rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi.

Hozirgi kunda Mamasiyiq Shiryayev, Hotamjon Hakimjonov, To‘xtamurod Azizov, Jumaboy Huraliyev, Bahodirjon Shokirov, Mansurjon Oxunov, Abdulla Akbarov va bir qancha yoshi ijodkorlar bu yo‘nalishdagi ijodiy an‘analarni munosib davom ettirmoqda.

Shu o‘rinda alohida ta‘kidlash joizki, askiyachilik — hazil-mutoyiba san‘at turi sifatida 2014-yili YUNESKOning Insoniyat nomodiy madaniy merosi representativ ro‘yxatiga kiritilgan madaniy hayotimizda muhim voqea bo‘ldi.

Hozirgi globallashuv davrida sof askiya san‘atini asrab-avaylash va xalqimiz o‘rtasida keng targ‘ib qilish yoshlarimizni o‘rmmaviy madaniyat” illatining buzg‘unchi ta’siridan himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, “askiya” so‘zi toza fikr, o‘tkir zehni, zakiiylk ma’nolarini anglatadi.



So‘nggi yillarda yurtimizda yoshlarning o‘z iste‘dodini namoyon etishi uchun imkoniyat yaratilishi natijasida ko‘plab kulgu jamoalari ham tashkil etildi. Ular bugun konsert dasturlari va turli madaniy tadbirlar orqali o‘zlarining ijod namunalarini namoyish etib, odamlarga xush kayfiyat ulashmoqda.

O‘rni kelganda ochiq aytish kerak, so‘nggi yillarda milliy qiziqchilgimizda, ayniqsa, endi yetishib kelayotgan ayrim yoshlar ijodida ko‘zga tashlanayotgan bachkanalik va sayozlik kabi kamchiliklar ziyolilarning haqli e‘tirozlariga sabab bo‘layotgan edi. Albatta, bunday holatlar, eng avvalo, qiziqchilik san‘atida “ustoz-shogird” an‘analarning susayib qolgan hamda yosh qiziqchilarni tarbiyalaydigan yaxlit tizim yo‘qligi bilan bog‘liq.

Prezidentimizning kuni kecha matbuotda e‘lon qilingan “Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori yurtimizda ushbu xalqona san‘atni rivojlantirish borasida butunlay yangi davrni boshlab beradigan muhim hujjat bo‘ldi.

Mazkur qarorda Marg‘oln shahrida Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi respublika askiya va qiziqchilik san‘ati markazini tashkil etish vazifasi belgilangani ayni

muddao bo‘ldi. Askiya va qiziqchilik ijrochiligi yo‘nalishida “ustoz-shogird” an‘analari rivojlantirish, iste‘dodli yoshlarni tarbiyalash, ularning ijodiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlash, madaniyat va ta‘lim muassasalarida ushbu yo‘nalishda to‘g‘arakerlik tashkil qilish kabi muhim masalalar Markazning asosiy vazifalari etib belgilanmoqda.

Qarorga asosan, 2024/2025 o‘quv yilidan Karim Zaripov nomidagi Respublika estrada va sirk kolleji hamda Farg‘ona ixtisoslashtirilgan san‘at maktabida “Askiya va qiziqchilik san‘ati” yo‘nalishi tashkil qilinadi.

Bundan tashqari, ushbu sohada taniqli ijodkorlarning mahorat maktablarini tashkil etish tashabbusi o‘zbek askiyachi va qiziqchilik maktabini yanada rivojlantirishga xizmat qilishi shubhasiz. O‘zining maktabini yaratgan ijodkorlarni moddiy rag‘batlantirish bilan bir qatorda, ularga samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratib beriladi. Bu esa badiiy so‘z ustalarining o‘z iste‘dodlarini yanada keng namoyon qilishi uchun katta imkoniyatdir.

Yana bir e‘tiborli jihati, bundan buyon yoshlarimiz aynan askiya va qiziqchilik



yo‘nalishida ta‘lim oladi. Buning ahamiyati juda yuqori. Chunki askiyachilik bo‘yicha chuqur bilim va malakaga ega bo‘lgan, uning boshqa janrlardan farqini teran his eta oladigan san‘atkorlar ko‘paygani sari uning saviyasi ham ortib boraveradi. Qolaversa,

“ustoz-shogird” an‘anasi tufayli ushbu inja san‘atni sof hoida saqlash va bir-birini to‘ldiradigan ijodiy tandemlar yuzaga kelishiga erishish mumkin.

Bundan buyon har yili badiiy so‘z ustalari va qiziqchilar o‘rtasida “Xush kayfiyat” respublika ko‘rik-tanlovi hamda askiya kechalari mintazam tashkil etish vazifasi belgilanmoqda. Askiya va qiziqchilik bo‘yicha bunday alohida tanlov o‘tkazilishi o‘z-o‘zidan sohada sog‘lom ijodiy raqobatni yuzaga keltiradi. Ya‘ni ijodkorlar ushbu tanlovda muvaffaqiyatli qatnashish maqsadida doimo izlanib, repertuarini boyitib boradi. Bu esa oxir-oqibat xalqimizning beg‘ubor va asl kulgu san‘atiga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Albatta, har qanday sohani rivojlantirish uchun, avvalo, uning mustahkam ilmiy-nazariy asoslarini yaratish talab etiladi. Yurtimizda Mamajon Rahmonov, Muhsin Qodirov, Rasul Muhammadiyev, Usmon Qoraboyev kabi bir qator olimlar askiya va qiziqchilik san‘ati bo‘yicha ham ilmiy tadqiqotlar olib borganini ta‘kidlash joiz. Yangi tashkil etiladigan markazda o‘zbek xalq og‘zaki ijodining ushbu muhim turlarini saqlash va targ‘ib etish bo‘yicha yanada ko‘lamdor ilmiy tad-

qiqotlar olib borish lozim bo‘ladi. Shu bois, ushbu yo‘nalishdagi ilmiy-ijodiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida har yili kamida 3 ta davlat buyurtmasi uchun mablag‘ ajratish tartibi belgilandi.

Buning natijasida askiya va qiziqchilik janrlining rivojlanish xususiyatlari va bosqichlari, ijro usullari hamda milliy madaniyatimizda tutgan o‘rniga bag‘ishlangan tadqiqotlar salmog‘i ortadi. Shu bilan birga, bugungi zamonaviy jamiyatda milliy kulgu san‘atining o‘rni qanday bo‘lishi, ushbu bebaho merosimizni jahon sahnalariga qay shakl va mazmunda olib chiqish lozimligi haqida ham muayyan tasavvurlarga ega bo‘lamiz.

Darvoqe, Prezident qarorida har ikki yilda bir marta “Tabassum” xalqaro kulgu festivalini o‘tkazish vazifasi belgilangani askiya va qiziqchilik san‘ati ustalarining ijodini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish borasida keng imkoniyat yaratadi.

Albatta, boshqa san‘at turlari kabi askiyachilik rivojida ham davlatning moddiy va ma‘naviy ko‘magi katta ahamiyatga ega. Shu bois, har yili sahnada namoyish etishga mo‘ljallangan kamida 5 ta hajviy asar uchun davlat buyurtmasi berilib, ijodiy tanlov asosida kamida 10 ta konsert-tomoshatadbiri va askiya kechalari o‘tkazish xarajatlari qoplab beriladi.

Shu bilan birga, har yili askiya ustalarining mahalliy gastrol safarlarini uyushtirish, ularning eng sara ijod namunalarini yaratish uchun buyurtmalar berish tartiblarini belgilangani ham soha ravnagiga xizmat qiladi. “Do‘stlar klubi” doirasida Askiya va qiziqchilik markazining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ijodkorlarga munosib shart-sharoit yaratib berish chora-tadbirlari belgilangani ham juda o‘rinli ish bo‘ldi.

Bir so‘z bilan aytganda, milliy askiya va qiziqchilik san‘atiga oid maxsus qaror qabul qilinishi Prezidentimiz tomonidan yurtimizda madaniyat va san‘at sohasi rivojiga qaratilayotgan yuksak e‘tibor va g‘amxo‘rlikning yana bir amaliy ifodasidir. Buning natijasida xalqimizning nozik didi va yuksak aql-zakovatini o‘zida namoyon etuvchi askiya va qiziqchilik san‘ati bugun butunlay yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ymoqda.





BUGUNNING GAPI

ZAMINIMIZ SAXOVATI, MIRISHKORLAR SHIDDATI

8 million tonnali xirmon uyuldi!

Boshlanishi 1-betda

Global iqlim o'zgarishlari, suv tanqisligi, xalqaro savdo-sotiq va transport logistikasi bilan bog'liq muammolar kuzatilayotgan murakkab vaziyatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash barcha davlatlar kun tartibidagi eng muhim masalalardan biriga aylandi. Ayni shu jihatlar, qolaversa, yurtimiz qishloq xo'jaligi sohasining yuqori salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida mazkur tarmoqda ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Sohaga bozor munosabatlarini tatbiq etish, yerga egalik huquqi kafolatlarini kuchaytirish, ilmfan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash kabi qator yo'nalishlardagi yangilanishlar agrar sektorimiz rivojini yangi bosqichga olib chiqdi.

O'rtacha hosildorlik 70 sentnerdan oshdi

Buni birgina g'allachilikda qo'lga kiritilayotgan natijalar misolida ham ko'rish mumkin. Xususan, paxta bilan birga g'alla maydonlari ham qisqarib borayotgan bir paytda hosildorlikni oshirish hisobiga yetishtirilayotgan yalpi hosil hajmi yildan-yilga oshmoqda. Jumladan, 2020-yilda hosildorlik gektaridan o'rtacha 57 sentner, 2021-yilda esa 64 sentnerni tashkil etgan bo'lsa, o'tgan yili 70 sentnerga yetdi. Joriy mavsumda esa mirishkorlarimiz gektaridan 70 sentnerdan oshirib hosil oldi, 8 million tonnadan ortiq don xirmoni ko'tarildi.

— Bu yil fermer va g'allachilik klasterlari tomonidan 1 million 248 ming gektar maydonda boshqoli don ekinlari yetishtirildi, — deydi Qishloq xo'jaligi vazirligi boshqarma boshlig'i Abdulla Mansurov. — G'allakorlarga berilgan imkoniyatlar orqali yuqori hosildorlikka erishish choralari ko'rildi. Xususan, boshqoli don yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan 5 trillion so'm imtiyozli kredit ajratildi. Hosildorlikni oshirish maqsadida biologik eskirgan navlar o'rniqa bug'doyning yuqori hosilli, noqulay ob-havoga chidamli "Asr", "O'zbekiston-25", "Davr", "Jasmina", "Bunyodkor" kabi 12 ta yangi kuzgi navi maydoni 585 ming gektarga kengaytirildi.

Ekish mavsumi maqbulligi, noyabr oyidagi yog'ingarchiliklar hisobiga asosiy g'alla maydonlaridagi ekinlar tuproqning tabiiy nam sharoitida undirib olindi. Shuningdek, mart-may oylarida azotli mineral o'g'itlar bilan 3-marta hamda makro-mikroo'g'itlarga boyitilgan biostimulyatorlar bilan suspenziya usulida 4-5-marta bargidan oziqlantirildi. Begona o't, kasallik va zararkunandalarga qarshi kimyoviy va biologik ishlovlar o'z vaqtida o'tkazildi.

Aksariyat viloyatlarda yuqori hosildorlik qayd etildi. Jumladan, sug'oriladigan yerdan buxorolik g'allakorlar o'rtacha 74,8 sentnerdan hosil olgan bo'lsa, Toshkent viloyatida bu ko'rsatkich 74,2 sentner, Samarqandda 73,8 sentner, Farg'onada 73,7 sentner, Andijonda 73,5 sentner, Xorazmda 73 sentner, Surxondaryoda 72,3 sentner, Jirgatalda 72,1 sentner, Namanganda 72,6 sentnerni tashkil etdi.

— Yetishtirilgan g'alla hosilini sifati o'rib-yig'ib olish maqsadida 2 ming 557 ta g'alla o'rish otryadi tashkil etilib, ularga yuqori unumli 3 ming 205 ta g'alla o'rish kombayni, 14 ming 725 ta yuk avtomobili, mingta traktor tirkamasi, 1 ming 261 ta ko'chma ustaxona va 1 ming 131 ta yonilg'i quyish shoxobchasi birlashtirildi, — deydi Qishloq xo'jaligi vazirligi departament boshlig'i Zafar Ortiqov. — G'allaning pishish holatidan kelib chiqib, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida 22-24-may, Sirdaryo, Toshkent va Buxoroda 29-may, Jizzaxda 31-may hamda Farg'ona va Navoiyda 2-iyun, Andijon, Samarqand va Xorazmda 5-iyun hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida 8-iyundan g'alla o'rimga kirishildi.

Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Uchqo'rg'on, Pop, To'raqo'rg'on, Mirzacho'l, Paxtakor, Qamashi, Norin, Oltinsoy, Sariyoshi, Denov, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Muzrabot, Termiz,

Mirzaobod, Oqoltin, Sayxunobod, Sirdaryo, Buvayda, Dang'ara, Quva, Oltiariq va Furqat tumanlarida nisbatan yuqori samaradorlik qayd etilib, hosildorlik 76-80 sentnerga yetdi. Pirovardida, respublikamiz bo'yicha gektaridan o'tgan yillardagiga nisbatan yuqori — 70 sentnerdan oshirib hosil olishga erishildi.

G'allakorlarimizning ulkan xirmon ko'tarishida Mirzacho'l tumanidagi "Og'abek Sobirovich", Uchqo'rg'onidagi "Farhod zamin tolas", Kattaqo'rg'onidagi "Jamolov Lutfullo dalalari", Angordagi

bozor tamoyilini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, aytish kerakki, bu borada huquqiy asos o'laroq, muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Negaki, mazkur qaror g'alla yetishtiruvchilar, jumladan, fermer xo'jaliklarining moddiy manfaatdorligini mustahkamlash va shu asosda g'alla hosildorligi hamda uning yalpi hajmini keskin oshirishga yo'l ochmoqda.

Qarordagi eng muhim jihatlardan biri — un mahsulotlari 2022-yilning 1-iyunidan, g'alla mahsulotlari esa 1-iyulidan



— Bu yil fermer va g'allachilik klasterlari tomonidan 1 million 248 ming gektar maydonda boshqoli don ekinlari yetishtirildi, — deydi Qishloq xo'jaligi vazirligi boshqarma boshlig'i Abdulla Mansurov. — G'allakorlarga berilgan imkoniyatlar orqali yuqori hosildorlikka erishish choralari ko'rildi. Xususan, boshqoli don yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan 5 trillion so'm imtiyozli kredit ajratildi.

"Ikki do'st Surxon Angor", Jarqo'rg'onidagi "Otaqum Umidli Baraka", Qumqo'rg'onidagi "Xurshid Jo'rayev", Boyovutdagi "Bekzod Obloqulov", Bekobodidagi "Boqiyeva Nazira agro", Yuqori Chirchiqdagi "Ibrohim agro fayz", Buvaydadagi "Alqor agrotek", Quvadagi "Komiljon Dilafo'z Ismigi" kabi fermer xo'jaliklari gektaridan 95-100 sentnerdan hosil olgani, ayniqsa, qo'l keldi.

Bozor tamoyillariga moslashuv

Mamlakatimiz g'allachilik tarmog'ida bu kabi ijobiy natijaga erishilishda fermer xo'jaliklarining manfaatdorligi yil-

boshlab ochiq birja savdolariga qo'yilishi belgilab berildi. Bundan ko'zlangan dala maqsad bug'doy va un narxlari barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Qolaversa, mahsulotlar uchun narxlar barqarorligiga erishishning eng samarali usuli talab va taklif mutanosibligini ta'minlash hisoblanadi. Shaffof birja savdolari esa mana shunday imkoniyatlarni taqdim etadi.

Mazkur vazifalar ijrosi doirasida Respublika tovar-xomashyo birjasida zarur shart-sharoitlar yaratildi. Xususan, bug'doyini birja orqali sotishda fermerlar birja komission to'lovlarini va garov



Takroriy ekindan qariyb 12 million tonna mahsulot

Yuqorida aytganimizdek, ayni paytda boshqoli don ekinlaridan bo'shagan dala maydonlariga takroriy ekin ekish ishlari avj pallada. Mamlakatimizda g'alladan bo'shagan yerdan samarali foydalanish borasida yangi tizim yaratildi. Ekin maydonlari ikkinchi hosil olish uchun, birinchi navbatda, kam ta'minlangan va boquv-

bo'yicha aniq hisob-kitoblar qilinib, joylarda ekish shtablari va ishchi guruhlar tashkil etildi. Ushbu jarayonga jami 8,6 trillion so'm talab etilishi hisob-kitob qilindi.

G'allachilik klasterlari va fermer xo'jaliklar tomonidan ijtimoiy daftarlarda ro'yxatda turgan ehtiyojmand aholiga bug'doy, shuningdek, somon tarqatish, takroriy ekin uchun ajratilgan yerni shudgorlab berish belgilab olindi. Shu asosda ularga qariyb 68 ming tonna don hamda 5 million 780 mingdan ortiq somon pressi berildi. Takroriy ekin ekish uchun esa 128 ming gektar yer ajratib berilmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, takroriy ekin yetishtirish hisobiga 743 ming nafardan ziyod aholi mavsumiy ish bilan ta'minlanadi.

Zafar Ortiqovning qo'shimcha qilishicha, 11-iyul holatiga ko'ra, takroriy ekin ekish uchun jami rejalashtirilgan yer maydonining 85 foiziga sabzavot, poliz, kartoshka, moyli, dukkakli va boshqa ekinlar ekib bo'lingan. Qolgan maydonlarda ekish ishlari davom etmoqda.

55 ming oilaga qo'shimcha daromad kiradi

Farg'ona viloyatida ham bu boradagi ishlar ayni avjda. Jumladan, Toshloq tumanidagi "Qumariq", "Obisiyo", "Jarqishloq" hamda "Qumqishloq" mahalla fuqarolar yig'inlarida yashovchi kam ta'minlangan, "Ayollar daftar" va "Yoshlar daftar"ga kiritilgan 60 fuqaroga bepul bug'doy va somon tarqatilib, bir martalik takroriy ekin ekish uchun 20 sotixdan yer ajratib berildi.

Uyimizga yaqin hududdan 20 sotix yer berishdi, — deydi "Qumariq" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Jahongir Akbarov. — Uydagilar bilan maslahatlashib, mosh ekdik, shu orqali oilamizning qo'shimcha daromad topishiga hissa qo'shmoqchiman. Bunda ekinlarni parvarishlash bilan bog'liq agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish, tayyor mahsulotni shu yerning o'zida sotish borasida amaliy ko'mak berib kelinayotgani ayni muddao bo'lyapti.

Jarqishloqlik Qilichbek Aminjonov ish izlab bir necha yil o'zga yurtlarni kezd. Lekin topgani o'zidan ortgani yo'q. Mahalla faollarning taklifi bilan uham 20 sotix yer maydoni, 150 kilogramm don, chorva uchun somon berildi. Qilichbek berilgan yerga makkajo'xori ekdi. Agar hosil kutilganidek bo'lsa, 2 tonnaga yaqin don olishi mumkin. Bir kilogramm makka doni bozor narxida 3-4 ming so'm ekanini hisobga olsak, daromad cho'g'ini chamlab olish qiyin emas. Poyasi esa chorva uchun to'yimli ozuqa, agar sotsa, u ham yaxshigina pul.

— Avvallari takroriy ekin ekish uchun yer olish tor doirada, tanish-bilishlar orqali hal etilardi, — deydi Qilichbek.

— Imkoniyatimiz yo'qligi uchun yer olo-may, yer egasi bilan tengsheriklik asosida ishlashga majbur bo'lganmiz. Natijada mehnatimizga yarasha manfaatdor bo'lmadik. Teng yarmini fermerga berardik-da. Endi hammasi izga tushib, yer ajratish bilan bog'liq munosabatlar tartibga solindi. Uzoqqa, yaqinlarimizdan olishga ish izlab bormasdan, shu yerning o'zida ham mo'may daromad olish imkoniyati yaratildi. Bundan juda xursandman.

Rishton tumanida ham bu muhim jarayon qizg'in. Joriy mavsumda tuman-dagi 7 ming 50 gektar yerga takroriy ekin ekish bilan bog'liq amaliy ishlarga kirishildi. G'alladan bo'shagan maydonlar peshma-pesh shudgorlanib, takroriy ekin ekilmoqda. Mavsum davomida ishsiz, ijtimoiy daftarlarga kiritilgan 1 ming 900 fuqaroga 380 gektar unumdor yer qo'shimcha daromad topish uchun bo'lib berilmoqda.

— Uch farzandimni yolg'iz tarbiyalayapman, shu bois, "Ayollar daftar" ro'yxatiga kiritilganman, — deydi "Oq-tomir" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Feruza Xalilova. — Menga "Oq yer fayzi" fermer xo'jaligidan 20 sotix yer ajratib berildi. Ekin maydoni shudgorlanib, kerakli urug' va o'g'it olib kelindi. Bu mehnat qilib, daromad topish yo'lida berilgan katta imkoniyat. Oila a'zolarim bilan bahamjihat mehnat qilyapmiz. Maqsadimiz — ekinlar hosildorligini oshirish, sifatini yaxshilash. Chunki sarxil hosilining daromadi ham salmoqli bo'ladi.

"Amirobod" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Elyor Dolimov "Amirobod zamini" fermer xo'jaligi g'allasidan bo'shagan yerda takroriy ekin yetishtirish uchun harakatni boshlab yubordi. E'tiborlisi, u shivit va kashinchning sarxil navidan olgan hosilini nafaqat ichki, balki tashqi bozorga ham olib chiqishni ko'zlab turibdi.

Umuman olganda, Farg'ona viloyatida bu jarayon qizg'in va uyushqoqlik bilan davom etmoqda. G'alladan bo'shagan maydonlarga hududlarning tuproq-iqlim sharoiti, eng asosiysi, suv ta'minotini hisobga olib, sabzavot, poliz, moyli, dukkakli ekinlar ekishga alohida e'tibor qaratilyapti. Joylarda g'alladan bo'shagan maydonlarni sifatli shudgorlash, urug', mineral o'g'itlar bilan ta'minlash, kasalliklarning oldini olish, ularga qarshi kurashish bilan bog'liq agrotexnik tadbirlarga amal qilish yuzasidan o'quv-seminarlar o'tkazildi.

— Bu ishlar uchun 3,9 ming tonna urug'lik, 15,5 ming tonna yoqilg'i-moylash mahsulotlari, 145,5 ming tonna mineral o'g'it, 1701 million metr kub suv sarflani-shi hisob-kitob qilingan, — deydi viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i Abduqahhor Qodirov. — Ushbu mavsumda ishsiz, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj 55 ming fuqaroga takroriy ekin ekish imkoniyati yaratildi. Ajratilgan maydonlar klaster korxonlari tomonidan shudgorlanib, 3 ming tonnadan ortiq bug'doy va 150 ming dona somon pressi yetkazib berildi.

Qishloq xo'jaligi vazirligi taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, respublikamiz bo'yicha takroriy ekin maydonlarida yil yakuniga qadar jami 11,8 million tonna mahsulot yetishtirilishi prognoz qilingan. Jumladan, 1,9 million tonna sabzavot, 766,7 ming tonna poliz, 1,2 million tonna kartoshka, 57,4 ming tonna moyli, 381,8 ming tonna dukkakli, 615,6 ming tonna sholi, 6,9 million tonna ozuqabop qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladi. Ularning 790 ming tonnasi qayta ishlashga, 318 ming tonnasi esa eksportga yo'naltiriladi. Shuningdek, 346 ming tonna mahsulot urug'likka ajratiladi, 566 ming tonnasi qish-bahor mavsumi uchun zarxiraga jamg'ariladi, 225 ming tonnasi yarmarkalarda sotiladi va 2,1 million tonnasi ichki iste'molga yo'naltiriladi.

Takroriy ekindan olinadigan yalpi hosil hajmi 2022-yildagiga nisbatan 673 ming tonna ko'p bo'lishi kutilmoqda. Bu, birinchi, bozorlarimiz to'kinligi, narxlar barqarorligiga xizmat qilsa, boshqa tomondan, dunyoda oziq-ovqat mahsulotlari narxi muttasil o'sib borayotgan bir sharoitda eksport hajmini oshirish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.

**Avazbek XUDOYQULOV,
Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbirlari**



dan-yilga oshib borayotgani muhim omil bo'lmoqda.

Bu boradagi o'zgarishlar o'tgan yildan yaqqol ko'zga tashlana boshladi. Xususan, Prezidentimiz 2022-yil 11-may kuni g'allachilikdagi islohotlarga bag'ishlangan yig'ilishda don yetishtirishda davlat buyurtmasini bosqichma-bosqich bekor qilish va haqiqiy g'alla bozorini yaratish borasida muhim qadam tashlashning fursati yetganini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari barcha zarur tashkiliy ishlar hal qilingan holda 2022-yil 1-iyundan boshlab g'allani davlat tomonidan sotib olish va sotishda bozor narxlariga o'tilishini ma'lum qildi. Shunday qilib, davlat resurslari uchun sotib olinadigan bug'doy narxi ikki barobar — 2021-yildagi 1 million 550 ming so'mdan 2022-yil hosili uchun 3 million so'mga oshirildi.

Prezidentimizning 2022-yil 28-maydagi "G'allani yetishtirish va sotishda

mablag'ini kiritishdan ozod etildi. Bundan tashqari, bug'doyning birja orqali tumanlarda samarali sotilishini yo'lga qo'yish maqsadida 20 mingdan ziyod fermer o'qitildi hamda birjada elektron raqamli imzo orqali soddalashtirilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazilib, brokerlik idoralarga birlashtirildi.

Brokerlar sonini ko'paytirish maqsadida Savdo-sanoat palatasining qariyb 200 xodimi, fermer xo'jaliklarining 500 dan ziyod buxgalteri brokerlikka o'tqilib, birjada broker sifatida ro'yxatdan o'tkazildi.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: pirovard natija qanday bo'lyapti? Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti ekspertlari tomonidan o'tkazilgan o'rganishlarga ko'ra, 2022-yilning iyul oyidan 2023-yilning mart oyigacha bo'lgan davrda birjada oliy navli import unning o'rtacha narxi 11,4 foiz, mahalliy oliy navli unning o'rtacha narxi esa 13,7 foiz tushgan.

chisini yo'qotgan oilalar, band bo'lmagan yoshlar, ishsiz aholiga taqsimlab berilmoqda. Majvud maydonlarga serhosil va xaridorgir sabzavot va dukkakli ekinlar ekish, kerakli urug', mineral o'g'it va suv bilan ta'minlash choralari ko'rilmoqda. Yo'lga qo'yilgan ushbu yangi tizimdan yurtdoshlarimiz, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi manfaatdorligi ortib boryapti. Shu bois, bugungi kunda takroriy ekin ekib, qo'shimcha daromad olish istagida bo'lganlar oz emas.

Hududlarning tuproq-iqlim sharoiti va suv ta'minoti inobatga olinib, g'alla va ertagi ekinlardan bo'shagan 904,9 ming gektar, boshqacha aytganda, o'tgan yildagidan qariyb 76 ming gektar ko'p maydonga takroriy ekin ekilishi belgilab olindi, — deydi Zafar Ortiqov. — Ularni o'z muddatida ekish uchun talab etiladigan urug'lik, moddiy-resurslarni yetkazib berish va yetishtirilgan mahsulotni sotib olish

Prezidentimiz yoshlarning oliy ma'lumot olishini qo‘llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratib keladi. Oliy ta'limdagi shaf-follikni kuchaytirish, kvotalar sonini sezilarli darajada ko'paytirish, davlat granti asosida qabullar soni oshirilishi kabi islohotlar shular jumlasidan.

Davlatimiz rahbari talabalarning fikrini tinglash asnosida ham ularning ko'plab muammolarini hal qiladigan tizim yaratdi, keng qamrovli imkoniyatlar berdi. Jamiyat rivoji yo'lidagi shunday qadamlardan biri ta-labalarning o'qish davrida ishlashiga ruxsat berilishidir. Bir qarashda oddiydek tuyulgan bu islohot, aslida, jamiyat uchun ham, kela-jagimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Buni, eng avvalo, talabaniq iqtisodiy erkinligi bilan bog'lashimiz mumkin.

Yaqin yillargacha talabalarning asosiy qismi to'rt yillik oliy ta'lim davomida faqat o'qish bilan chegaralanib, kundalik sarf-xarajatlari ota-onasi, yaqinlari zimmasiga tushardi. Bu talaba psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birgalikda, yaqinlari uchun ham qiyinchilik tug'dirar, qisqacha aytganda, ular oilasiga "yuk" edi go'yo. Tasavvur qilib ko'ring: bir emas, ikki-uch farzandini o'qitayotgan ota-onalar qanchalik qiyналgan?!

Bolalarning ta'lim olishi uchun yiqqan-terganigacha sotgan, ro'zg'oridan qiyib, top-ganini talaba farzandlariga yuborgan, o'zlar esa nochor hayot tarziga ko'rib yashagan qancha oilalarni ko'rganmiz, eshitganmiz. O'ladagi mana shunday qiyin vaziyatni ko'rib turgandan keyin talaba ham xayolini jamlab, butun diqqatini o'qishga qaratishi, albatta, qiyin.

— O'ladagi to'rt o'g'il edik. Katta akam otamning yoniga kirib, dehqonchilik bilan shug'ullanardi. Ikki ukam Qarshi davlat uni-versitetida, men poytaxtda o'qirdim, — deydi Toshkent davlat yuridik universitetini tamom-lagan Ulug'bek Shukrulloev. — Tan olib aytishim kerak, talabalik davrim ruhiy ezi-lish, o'zimdagi norozilik kayfiyatida kechgan. Biror bayram sabab dam olish e'lon qilin-sa, uyga ketishni istamay, bir o'zim qolardim. Sheriklarim buni manmanlik, qishloqni yo-mon ko'rish deb tushunar ekan. Ular buning sababini bilmas edi-da. Aslida, hatto yo'kiram ham otamga yuk bo'lishidan uyalardim...

Necha bor ishga kirmoqchi bo'lganman. Biroq talabaligim bois, meni ishga olishmas-di, imkon berilmadi. Juda alam qilganidan bir necha bor restoranlarda ofitsiant bo'lib yoki "moyka"da ishlashga chiqqanman. Yarim kechagacha qolib ketganim uchun deyarli har safar ichki ishlar xodimlari ushlab olardi. O'qishdan haydalishtan qo'rqib, bun-day ishlarga ham qayta chiqmay qo'ydim.

Talabalarga ishlash uchun ruxsat berili-shi haqidagi yangilik, rostini aytaman, meni juda quvontirib yubordi. Shu bilan birga, talabalik yillarimni ham qayta yodga soldi. Bu juda katta imkoniyat. Talabaniq ham ishlab, ham o'qishi uning kelajakda jami-yat uchun kerakli shaxs bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi, deb o'ylayman. Har bir yigit-qiz talabaligidanoq o'z-o'zini ta'minlay boshlashi ularni boqimandalik, yaqinlariga qaramlik hissidan xalos qilib, mustaqil bo'lishiga zamin yaratadi. Biz kabi "Uydan nima kelarkan?" deb o'tirmaydi-da, har holda.

Hozir jiyalarim poytaxtda o'qiyapti. Mana shu imkoniyatlar tufayli ular ham o'qishdan bo'sh paytida ishlaydi. Meni hayratlantirgani — institutda o'qiyotgan jiya-nim o'zidan orttirib, yaqinda otasiga 5 million so'm pul yuboribdi. Bu juda yaxshi-ku!

Amaliyotda toblanish muhim

2022-yilning mart oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev oliy ta'lim muassasa-lari talabalari bandligini ta'minlash bo'yicha o'tkazgan videoselektor yig'ilishida bun-dan buyon talabalarning ishlashiga rux-sat berilishi tashabbusini ilgari surgan edi. Bu yangilik yurtimizdagi minglab talabalar hamda ota-onalar tomonidan juda iliq kutib olindi. Mazkur imkoniyat, o'z navbatida, oliy ta'limdagi yana bir islohotlab masalaga oqilona yechim berdi.

Birinchidan, endi talabalar o'qish mo-baynida o'z-o'zini moliyaviy tomondan ham ta'minlay olishi mumkin bo'ldi. Moliyaviy imkoniyat, deganda faqatgina turar joyi, ovqatlanishiyu kiyim-kechagi emas, o'z-o'ziga investitsiya kirita olish imkoniyatini ham tushunishimiz maqsadga muvofiq. Chunki shu vaqtgacha ota-ona tomonidan ta'minlangan talaba o'qishdan tashqari qo'shimcha kurslarga qatnashga, o'zi uchun zarur kitoblarni sotib olishga jur'at qila olmagan. Sababi, sarflangan har bir so'm to'g'ridan-to'g'ri oila gardaniga tu-shardi. Endi esa talaba o'zi mustaqil ish-lashi, orttirgan pulidan kelajagi uchun sar-moya kiritishi mumkin bo'ldi.

Ikkinchidan, talabaniq o'qish davomida ishlashi katta amaliyot maktabi vazifasini ham bajaradi. Oliyoghdagi nazariy bilim-lar bilan cheklanib qolmasdan, olingan bi-limlarni amaliyotda qo'llash bo'lajak kadr-larning salohiyati yanada o'sishiga xizmat



qiladi. Shu sababli, talabalarning har biriga individual yondashib, o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirishga alohida urg'u berildi.

Mazkur imkoniyat tufayli ko'plab oilalarda tinch-totuvlik muhiti qaror topdi. Ilgari farzan-dim oliy ma'lumotli bo'lsin, deb ota-onalar bor mashaqqatni yelkasiga olgan. Og'zaki hisoblab ko'rilsa, viloyatdan poytaxtga kelib o'qiyotgan talabaniq bir kurs xarajatlari ancha-munchani tashkil qilardi. Kamida 10 million so'm to'lov kontrakt, kundalik ehtiyoj-lari uchun har oy kamida 2-3 million so'm pul, kiyim-kechagiyo boshqa sarflari bilan qo'shib hisoblaganda yiliga 45-50 million so'm atrofida bo'lardi.

Endi tasavvur qiling, oylik maosh evaziga kun ko'ruvchi o'rta miqdorli oila uchun shun-cha mablag'ni topish osonmi? Nari borsa, 5 million so'm maoshga ishlagan ota-ona topganini bolasi-ga yuborsinmi, ro'zg'orini tebratsinmi? Iqtisodiy qiyinchiliklar, hech shubhasiz, oila totuvligiga ta'sir qilmasdan qolmaydi.

Bolalarni o'qitish uchun ikki smenada ish-lagan otalar, paxta mavsumining boshidan oxirigacha daladan uyga qaytmay paxta ter-gan onalar haqida eshitganmiz. Preziden-timiz tomonidan yaratilgan ushbu imkoni-yatni aynan shunday "qahramon" ota-onalar yanada quvunch bilan qarshi olgan bo'lsa, ne ajab!

O‘ZIMNI ERKIN SHAXS HISOBLAY BOSHLADIM

Elyor JO'RAYEV, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi:



— Ota-onam o'qituvchi bo'lgani uchun yoshlikdan bizning yaxshi o'qishimizga jid-diy e'tibor bergan. Bolaligimizdan asosiy vaqtimiz ularning ishxonasida — maktabda o'tardi.

Kutubxona mening yaxshi ko'rgan joyim edi. Badiiy kitoblari, gazetalarni 5-6-sinfdaligimdan boshlab o'qishni bosh-laganman. Kitobga do'st bo'lgan kishi undan ajrala olmay qolar ekan. Men ham kitoblarning ashaddiy muxlisi bo'lib qol-gandim.

Qiziqishimni ko'rib, tarix o'qituvchimiz fan olimpiadalariga jalb qildi, ota-onamga "o'g'lingizni, albatta, Toshkentda o'qitng, undan olim chiqadi", derdi. Ustozimning bu gapi maktabni bitirgunimcha men uchun dasturlam bo'lib qoldi. Toshkentda o'qish orzusi butun fikrimni egallab olgan, faqat shuni o'ylardim. Shunga yarasha maktabda ham eng a'lochi bo'lishga harakat qildim. Ota-onamning roziligi bilan Toshkentga o'qishga kirdim.

Lekin haqiqiy hayot, haqiqiy mashaqqat endi boshlanganini poytaxtga kelib tushu-nib yetganman. Yigit kishi uchun ota-onaga suyanib talaba bo'lishning o'zi bo'lmas ekan. Faqat shirin orzular og'ushida ya-shab, Toshkentda o'qishning qiyinchiligi, moddiy ta'minot haqida o'ylamaganman. Ishlay desam ish ham, ish topishga yordam beradigan odam ham yo'q.

Rostini aytaman, oilamni bunchalik qiyinchilikka qo'yishni istamay, bir ne-cha marta o'qishni tashlash haqida ham o'yladim. Lekin bunga nimadir to'sqinlik

qilaverdi. Shu saylda 2-kurs bo'ldim. Bu orada otam o'zi minib yurgan mashinasini kontraktimni to'lash uchun sotishga majbur bo'ldi. Ana shunday o'ylovda yurgan kun-larning birida ustozimiz mehnat yarmarkasi o'tkazilayotganini aytib qoldi. Men ish izlab yurganimni, bu masalada yordam berishini iltimos qildim.

Shunday qilib, fakultetimiz rahbariyati ko'magi bilan poytaxtdagi muzeylardan bi-riga mutaxassis bo'lib ishga joylashdim. Bir oy sinov muddati berildi, keyin esa xodim sifatida ishga olishdi.

Maosh tushgani haqida telefonimga kel-gan xabarni qayta-qayta o'qiganman. Axir umrimda birinchi marta ota-onamdan mus-taqil pul topishim edi-da. Men o'zimni ilk bor moliyaviy mustaqil his qila boshladim. Ilgari barcha rejalarim ota-onamning imkoniyatiga bog'liq edi, endi o'zim reja tuzishim mumkin bo'ldi.

Oldimga qo'ygan katta maqsadlarim-dan bittasi — men uchun mashinasini sot-gan otamga yangi mashina sovg'a qilish. Prezidentimizning men kabi yoshlarga yaratib bergan imkoni tufayli bugun kayfiya-tim yaxshi, bilim olishga xohishim kuchli. Ke-lajakda bilim va salohiyatimni mamlakatimiz ravnaqi uchun yo'naltiraman.

Uchinchidan, ushbu imkoniyat jamiyatda kadrlar salohiyati rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir etadi. Oliyoghdan oladigan bilimlarini ko'p o'tmasdan amaliyotda sinab ko'ruvchi talabada kasbiy rivojlanish ancha yuqori ke-chishi tadqiqotlarda isbotlangan.

Misol uchun, endi talaba 2-kursda olgan bilimni haqiqiy ish amaliyotida sinab ko'rishi uchun o'qishni bitirishini kutishi shart emas. Xotira xususiyatlariga ko'ra, takrorlanmagan bilimning esdan chiqib ketishi ham juda oson kechar ekan. Kitobda o'qiganlarini o'z vaqtida amaliyotda sinab ko'rish esa bu bi-limlarning xotirada muhrlanib qolishiga za-min yaratadi.

Bilimli, har tomonlama yetuk xodimlarga talab tobora ortib borayotgan bugungi zamo-naviy jamiyatimizda esa bu har tomonlama to'g'ri qaror bo'ldi, desak adashmaymiz.

Yangi tanlov filtri

Prezidentimiz bergan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida respublika bo'ylab keng tarmoqli chora-tadbirlar ishlab chiqish boshlandi. Mahalliy hokimliklar va tashkilo-tlar tomonidan bo'sh ish o'rnlari tahlil qilinib, ularga talabalarni qabul qilish imkoniyatlari o'rganildi. Vakansiyalar bazasi asosida res-publikamizdagi barcha oliy ta'lim muassa-salarida mahalliy hokimlik va tashkilotlar va-

killari ishtirokida mehnat yarmakalari tashkil etildi. OTMlar rahbariyati bu yarmakalar orqali ishlashga ehtiyoji bo'lgan barcha ta-labalarni qamrab olish bo'yicha tizimli ish-larni amalga oshirdi, jumladan, mas'ullar ishtirokida mavzuga bag'ishlangan axborot soatlari o'tkazildi.

Shuningdek, faqat talabalar uchun mo'ljallangan ish izlash platformalari ishlab chiqilgani, unda yangi ish o'rnlari uzluk-siz e'lon qilib borilgani tahsinga sazovor. Qo'shimcha ravishda bu vakansiyalar ba-zasi OTMlarning rasmiy sahifalariga ham joylab borildi.

Bir so'z bilan aytganda, davlat tashkilo-tlarining talabalarga munosabatida sezilarli o'zgarish yuz berdi. Bundan avval "talabani ishga ololmaymiz", deb eshikni ko'rsatgan rahbarlar endi ularni samimiy qabul qilib, avval haq to'lanadigan amaliyotchi, keyin esa doimiy xodim sifatida ishga qabul qila boshladi.

Yana bir quvonarli jihati, talabalarni ish bilan qamrab olish faqat mehnat yarmarka-lari bilan cheklanib qolmay, asosiy ish plat-formasi hisoblanuvchi ish.mehnat.uz say-tida ham "Talabalar uchun ish" degan yangi tanlov filtri ko'shildi. Bu esa saytga kirgan talaba uchun ko'plab vakansiya orasida o'ziga mosini topishda qulaylikni bir necha barobar oshirishga xizmat qiladi.

MAOSHIMDAN ORTTIRIB, SINGLIMGA HAM YORDAM BERYAPMAN

Rushana SA'DULLAYEVA, O'zbekiston Milliy universiteti talabasi:



Bir kuni auditoriyaga dekanimiz kirib, endi talabalar ham davlat tashkilotida ish-lasa bo'lishini, istasak, o'zimizni sinab ko'rishimiz mumkinligini aytdi. Bu xabarni eshitib, halovatim yo'qoldi.

Vakansiyalar ro'yxatidan izlab-izlab o'sha paytdagi Innovatsion rivojlanish vazirligi matbuot xizmatida bo'sh ish o'rni borligini topdim. Ariza yubordim, bir ne-cha kun o'tgach, suhbatga chaqirishdi. Chet tilni bilganim hamda nutqim ravon bo'lgani qo'l kelib, ishga qabul qilindim. Endi tasavvur qiling, oddiygina talaba qizning vazirlikka ishga kirishi ota-onani qanchalik xursand qiladi. Otamga bu haq-da aytganimda, ko'ngli tog'day ko'tarilib ketdi. Onamning aytishicha, otam o'sha kuni qarindoshlarimizni chaqirib, mehmon qilibdi.

Endi o'qishni ham, ishni ham birga olib borishga harakat qila boshladim. Boshida sal qiyin bo'larkan, keyin ancha moslashar-kansiz.

O'tgan yili singlim ham poytaxtga o'qishga kirdi. Ming shukrki, maoshim-dan orttirib, unga ham yordam beryap-man. Illoji boricha otamga yengil bo'lishini o'ylayman.

Ha, yurtimizda ana shunday ham o'qib, ham ishlayotgan talabalar bugungi kunda ko'pchilikni tashkil etadi. Bu ularning mustaqil shaxs bo'lib kamolga yetishida, yetuk mutaxassis sifatida shakllanishida muhim bosqich, desak adashmaymiz. Talabalarga davlat miqyosida bunday g'amxo'rlik ko'rsatilishi esa tahsinga sazovor.

Jonibek ALIJONOV, jurnalist



Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti mamlakatimiz tog'-kon sanoati uchun malakali mutaxassislar tayyorlaydigan nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan biri hisoblanadi. Yurtimiz oliy dargohlari reytingida 5-o'rinni egallab turibdi. Ushbu ta'lim maskanida 2000-yilda ikki yarim ming talaba tahsil olgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich sakkiz yarim mingga yetdi. Talabalarga 300 dan ziyod malakali pedagog ta'lim berib kelyapti. Ularning 29 nafari fan doktori, 121 nafari fan nomzodi ilmiy darajasiga ega.

Universitetning ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari doktori, professor Saodat Bozorova tanla-

gan kasbi orqali hurmat qozongan va o'zini baxtli olim ayollar safida ko'radigan soha vakillaridan biri.

ILMIY TADQIQOT uzluksiz taraqqiyot demak

— Ushbu ta'lim dargohida 1982-yilda faoliyat boshlaganman va qirg yildan zi-yod vaqt davomida talabalarga dars berib kelaman. Bu yerga kelganimgin dastlabki kunlarida laboratoriya jihozlarining eskili-gini ko'rib, gohida afsuslanganman. Sababi, o'sha yillari ilmiy tadqiqot yuritish uchun ushbu ta'lim maskanida yetarli sharoit yo'q edi. Ilmiy ishim uchun zarur laboratoriya ji-hozlari u vaqtda faqat xorijda bo'lib, chet elga chiqish men uchun deyarli imkonsiz bo'lgan. Shuning uchun ham ilmiy ish qilish, tadqiqotlar o'tkazish juda ham mashaqqat edi. Jamoamiz ayollaridan bor-yo'g'i bir na-fari ilmiy darajaga ega bo'lib, qolganlari katta o'qituvchi sifatida faoliyat olib borardi. Ora-dan yillar o'tdi, tabiiyki, ko'p narsa o'zgardi. Bugun u holatlar tush kabi o'tmishda qoldi. O'tgan yillar davomida ta'lim muassasala-riga e'tibor kuchaydi, moddiy-texnik bazasi yaxshilanib, laboratoriyalar zamonaviy jihoz-landi. Shunday imkoniyatlardan foydalanib, fan doktori, professor ilmiy darajasini olish-ga erishdik, — deydi Saodat Bozorova.

Albatta, ilmiy izlanishlar uchun imkoni-yatlar kengayishi bevosita universitetning moddiy-texnik bazasi bilan bog'liq. Raqam-lar misolida tahlil etsak, universitetda 2018-yilda ilmiy himoya ishlari soni 17 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda

26 ta, o'tgan yili esa 40 taga yetdi. Uni-versitet olimlari tomonidan intellektual mulkka egalik bo'yicha 12 ta patent olindi. Xalqaro ilmiy hamkorlik masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Oliy o'quv yurtida tahsil olish istagidagi yoshlar soni ortdi, ilmiy tadqiqotlar bo'yicha izlanayotgan pedago-glar safi yanada kengaymoqda.

19 gektar yer maydonini egallagan uni-versitet hududining 60 foizi laboratoriyalar-dan iborat. Bu esa nafaqat egallangan na-zariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlash uchun qulay, balki ilmiy-tadqiqot uchun ham ayni muddao. Yangilik yaratishga qo-dir, kashfiyotlar ustida ishlayotgan, mam-lakatimiz tog'-kon sanoati rivoji uchun mu-nosib hissa qo'shish maqsadida tinimsiz izlanish olib borayotgan talabalar, yosh olim-

larni ham aynan shu ta'lim dargohida ko'rish mumkin. Oybek Mustafoyev sohaga bo'lgan qiziqishi, shijoati bois, bugun ko'plab ta-labalarga o'mak. Yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalana olgan yosh mutaxassis bugun texnika fanlari bo'yicha falsafa dok-tori ilmiy darajasiga ega.

— Universitetimizda ilmiy-uslubiy ishlar va tadqiqotlar uchun barcha imkoniyatlar yetarli. Sohadagi o'n yillik faoliyatim davomida bu ta'lim maskanida ko'plab yutuqlarga erish-dim, jumladan, yaqinda doktorlik dissertat-tasini yoqladim. Ayni vaqtda xorijda malaka oshirishni maqsad qilganman va yangi il-miy ishlarni boshlash arafasidaman. Buning uchun imkon ham, rag'bat ham bor, — deydi yosh olim Oybek Mustafoyev.

Universitetda ustoz-shogird an'anasi mu-vaffaqiyatli yo'lga qo'yilgani ham o'zining ijo-biy samarasini bermogda. Kasb mashaqqa-tini boshdan kechirgan, ilmiy darajaga ega bo'lish uchun yillab tinimsiz izlangan peda-goglarning hayot yo'li yoshlarga ibrat, aslida. Hayot haqiqati bugungi imkoniyatlar qadri-ni anglashga o'rgatadi. Zamonaviy jihozlan-gan auditoriyalarda faqat dars o'tilmaydi, balki o'tmish, bugungi kun va kelajak haqida ham mulohazalar yuritiladi.

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



FAXR

BIR MAQSAD YO'LIDA BIRLASHGAN XALQMIZ



Mahmud TOIR,
O'zbekiston xalq shoiri

*Yaxshi niyatidan yayragan millat,
Muazzam turkiymiz, munavvar Sharqmiz,
Bizga ajdodlarning izlari ibrat,
Bir maqsad yo'lida birlashgan xalqmiz.*

*Yakdil xalqqa aslo tegib bo'lmaydi,
Tug'i boshdan tushmas, egib bo'lmaydi,
Birlashganni sira yengib bo'lmaydi,
Bir maqsad yo'lida birlashgan xalqmiz.*

*Mehr daryosiga mirob o'zimiz,
Din-u diyonatga chiroq ko'zimiz,
Tinchlik, faqat tinchlik, bizning so'zimiz,
Bir maqsad yo'lida birlashgan xalqmiz.*

*Odillik, oqillik qonimizdadir,
Nomus ham orimiz jonimizdadir,
Adolat qilichi yonimizdadir,
Bir maqsad yo'lida birlashgan xalqmiz.*

*Sovuqdan asragan oilani tancha,
Bizni birlashmasin deganlar qancha,
Yashaydi xayolda tug'larin sancha,
Bir maqsad yo'lida birlashgan xalqmiz.*

*Sotmay ham sotilmay tikka qarashgan,
Qornimas, qadriga har on talashgan,
O'zbekka — o'ziga beklik yarashgan,
Bir maqsad yo'lida birlashgan xalqmiz.*

*Vafodor do'stlarni kaftida tutgan,
Kin, g'araz, hasadni butkul unutgan,
Hamisha xush mezbom, xush mehmon kutgan,
Bir maqsad yo'lida birlashgan xalqmiz.*

*Jahon ahlin qalbin zaftiga qodir,
Muhabbatning so'nmas taftiga qodir,
O'zbek shunday xalqdir, yuragi nodir,
Bir maqsad yo'lida birlashgan xalqmiz.*

*Yangi O'zbekiston — qutlug' maqomda,
Mayli irqi, dini, turli kalomda,
Vatandosh atalar hamma bir nomda,
Bir maqsad yo'lida birlashgan xalqmiz.*

*Shonli davlat qurgan bobolar bizda,
Dunyo qo'lin ochgan duolar bizda,
Ilmi ummon bo'lgan donolar bizda,
Bir maqsad yo'lida birlashgan xalqmiz.*

*Katta yo'lga chiqqan karvonga balli,
Tangri ato etgan imkonga balli,
Elni aziz tutgan insonga balli,
Bir maqsad yo'lida birlashgan xalqmiz.*

*G'oya bir, maqsad bir, xalq baxti uchun,
Uyg'onmoq kerakdir, dil ahdi uchun,
Fozillar ko'tarar millatning yukin,
Bir maqsad yo'lida birlashgan xalqmiz.*

*Yangi O'zbekiston — buyuk maqsaddir,
Mehrdan yaralgan metin sarhaddir,
Mard sarbon tiklagan egilmas qaddir,
Bir maqsad yo'lida birlashgan xalqmiz.*



“Boburnoma” ITALYAN TILIDA

yoxud G'arbning Sharqqa tavba-tazarrusi

Sultonmurod OLIM,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 25-yanvarda qabul qilingan “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540-yilligini keng nishonlash to'g'risida”gi qarori 2-bandida, jumladan, “Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-ijodiy merosini, davlatchilik va sarkardalik faoliyatini keng o'rganish maqsadida xalqaro miqyosda ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e'lon qilish, yangi ilmiy, badiiy-publististik asarlar yaratish” belgilangan edi.



(XIV-XVI asrlar) uchun ham Birinchi Sharq Renessansi shunday asos vazifasini o'tadi. Hatto XIII asrga qadar Italiya hukmdorlari saroylarida aynan islom Sharqi, ayniqsa, arab hukmdorlari saroylaridagi urf-odat, an'ana va tartib-qoidalariga amal qilinganiga tarix guvoh.

O'tgan asrlarda G'arbning Sharqqa bepisandlik bilan qarashi Buyuk Sharq asarlari tarjimalariga munosabatda ham yaqqol namoyon bo'ldi. Albatta, bunda tarjimonlarni ayblashga hech kimning haqqi yo'q. Muayyan asarni bir tildan ikkinchisiga o'g'irgan tarjimon hamma vaqt ham muqaddas vazifani bajargan bo'ladi. Ammo gap o'sha tarjimoni qanday maqsad bilan o'qish haqida borayotir.

Muqaddas islom dinida: “Hamma narsa niyatga bog'liq”, degan buyuk aqida bor. Har qanday asarni har kim har xil niyat bilan o'qiydi. Kimdir undan faqat fazilat izlaydi-da, xato va kamchiligi ko'rmaydi. Boshqa bir kishi, aksincha, undan faqat xato va kamchilik izlaydi.

Tarjima asarga munosabat ham xuddi shunday.

“Boburnoma”ning italycha tarjimasini G'arbning bizning boy milliy merosimiz, shu bahonada, butun Sharqqa munosabati keskin o'zgarganining yorqin namunasi, deyish mumkin.

“Bu nashrning global ahamiyati” deganda biz aynan shuni ko'zda tutdik.

Buning uchun “Sandro Teti Editore” nashriyot uyi jamoasiga, shaxsan muhtaram direktor Sandro Teti janoblariga, shu nashrga bosh qo'shgan barcha mutaxassislarga samimiy tashakkurlarimizni izhor etamiz.

butunlay uzilib qolgan edi. Bizdagi Birinchi Renessans davri, ya'ni IX-XII asrlarda lotin va yunon tillaridagi noyobdan-noyob buyuk asarlar arab tiliga o'girildi. Shu tariqa ular yana qaytadan umumbashar mulkiga aylantirildi. Bundan keyin yuz bergan G'arb Uyg'onish davrida esa, aksincha, yevropaliklar o'z tarixiy meroslarini sharqliklar

Asarni Federico Pastore ingliz tilidagi Uiler Takston tarjimasini asosida o'g'irgan. U o'z tarjimasini ko'plab izoh va sharhlar bilan boyitib, italycha o'quvchisining Bobur satrlari mohiyatiga yetishiga ko'mak bergan. Tarjimon “Boburnoma” islom sivilizatsiyasidagi avtobiografik asarning birinchi namunasi hisoblanadi”, deb yozadi.



sharofati bilan arab tili orqali o'rgana boshlashdi. XX-XXI asrlarga kelib, yana vaziyat butunlay o'zgardi — endi Sharq o'z tarixiy merosini G'arb ilmiga suyangan holda o'rgandi. Qaytar dunyo deganlari shu.

Ikkinchidan, madaniyatlarining bir-biriga o'xshamasligi hali ulardan birining ikkinchisidan ustun yoki past darajada ekanini anglatmasligi ayon bo'ldi. Har qanday madaniyat qaysidir jihatlari bilan boshqa madaniyatlardan ustun bo'lishi mumkin-ku.

Uchinchidan, globallashuv jarayonidagi manfaatlar birligi hamma zamonda ham bunday ayirmachilikni inkor etadi.



“Boburnoma”ning o'tgan asrlarda Yevropa tillariga qilingan ayrim tarjimalari, ro'y-rost aytiladigan bo'lsa, Markaziy Osiyo, Xuroson, Eron, Pokiston, Hindistonni bosib olish, ya'ni mustamlakachilik — kolonizatorlik ilinj bilan o'qildi. G'arb bu asarni bosib olish maqsadi uchun izchil o'rgangan zamonlarda biz, sharqliklar uni o'z yurtlarimizni himoya qilish uchun bo'lsa ham o'qimadik.

Bu uzundan-uzun mulohazalarni keltirishdan maqsad bor: tan olib aytish kerakki, bu italycha nashr G'arbning ana shu eskicha qarashini butunlay sindirib tashladi.

Birinchiidan, bugun dunyo G'arbning Sharqqa bepisand munosabatini asossiz ekanini anglab yetdi. Chunki bashariyat taraqqiyoti bilan bog'liq sivilizatsiyalarning ko'chib yurishi qonuniga binoan, Sharq yana qayta uyg'ondi, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur va hokazo mamlakatlardagi taraqqiyot buni to'la isbotladi. “Bir kun ko'l bo'lgan joy cho'l bo'ladi, bir kun cho'l bo'lgan joy ko'l bo'ladi”, degan o'zbek xalq maqoli mag'zida aynan ana shu tamaddunlarning ko'chib yurishi ko'zda tutilgan. Bir zamonlar G'arb o'zining antik davrdagi sivilizatsiyasini unutgan, undan

To'rtinchidan, “Boburnoma”ning italycha tarjimasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning so'zi bilan ochilishi har qanday kitobxon ong-shuurida bu asarning naqadar buyuk ahamiyatga ega ekanini haqida o'ylashga undaydi.

Beshinchidan, tarjima nashriga Sharq mavzusidagi asarlari bilan tanilgan italyan olimi va adibi Franko Kardiniyning “Yozishni yaxshi ko'radigan buyuk hukmdor yoxud hukmdorlikni yaxshi ko'radigan buyuk adib” sarflavhali badiia (esse)si ilova qilingan. Ochig'i, bu “Kirish” butunicha “Boburnoma” va uning muallifiga munosabat bahonasida amalda G'arbning Sharqqa munosabatini o'zgartirishga da'vat sifatida yangragan.

Shu jihatdan bu nashr global ahamiyatga ega. Chunki u italyan madaniyatining o'zbek madaniyatiga yangicha munosabatiga emas, yalpi olganda, G'arbning Sharqqa yangicha munosabati yangilig' qabul qilinishi zarur.

Franko Kardini “Boburnoma”ga yuksak madaniyat yaratgan buyuk xalqning boy merosi sifatida qaraydi. Ishonadi, o'quvchisini ham ishonitiradiki, bu asarni o'qiy boshlagan yevropalik undan bosh ko'tarolmay qoladi,

ya'ni uni oxirigacha katta qiziqish bilan mulohaza qiladi. Olim va adib ana shu yevropalik kitobxonga uqtiradiki: “...Hindistondagi Buyuk Mo'g'ullar yoki, aniqlik, Buyuk Boburiylar sulolasi hashamatini ko'z oldimizga keltirishning o'zi yetarli, bunda biz butunlay “boshqa Renessans”ni ko'ramiz, undagi hashamatli shaharlar, saroylar va bog'lar bizdagilar bilan teng edi, hatto bizdagi madaniy taraqqiyotning eng cho'qqisi bo'lgan davrlardagidan ham ustun kelar edi...”.

Shu va shunga o'xshash fikr-mulohazalarini bayon etar ekan, atqoli publistist ichki jasorat bilan go'yoki butun G'arb ahli nomidan Sharq xalqi oldida tavba-tazarru qilgandek bo'ladi: “Biz, “G'arb ahli”ning dunyoning boshqa barcha madaniyatlari oldida ulkan qarzimiz bor: chunki hujum qildik, taladik, ularni o'zimizga bo'yundirdik, shuni o'ylamadikki, hatto nasroniylar orqali qayta ko'rib chiqilib, nazardan o'tkazilgan Rim huquqi ham bizga bosqinchilar, qotillar, zulmlar tarzida ish ko'rishimizga qo'yib berdi. Biroq, ehtimol, bundan ham jiddiyroq bo'lgan xalqlarning mol-mulki, erki, hat-toki hayotini tortib olish, ularni bizdan ko'ra boshqacha yashagani va fikrlagani, bizning zo'rvonligimizga qarshi turish uchun bizdagiga teng keladigan qurollari ham, ba'zan, hatto istaklari ham yo'qligi uchungina tinimsiz ravishda “past tabaqa” hisoblab, hech qachon, boringki, yaqin-yaqin davrlargacha ham ularni fan, san'at, go'zallik bilan hisoblashmadik, bizni faqat va faqat iqtisodiy tomonga qiziqitirdi”.

Shulardan kelib chiqib, “Boburnoma”ning italycha tarjimasini G'arbning bizning boy milliy merosimiz, shu bahonada, butun Sharqqa munosabati keskin o'zgarganining yorqin namunasi, deyish mumkin.

“Bu nashrning global ahamiyati” deganda biz aynan shuni ko'zda tutdik.

Buning uchun “Sandro Teti Editore” nashriyot uyi jamoasiga, shaxsan muhtaram direktor Sandro Teti janoblariga, shu nashrga bosh qo'shgan barcha mutaxassislarga samimiy tashakkurlarimizni izhor etamiz.

Bir orzu sifatida shuni aytish kerakki, atqoli sharqshunos, filologiya fanlari doktori, professor ustozimiz Najmiddin Komilovning bir paytlar O'zbekistonda shov-shuv bo'lgan mashhur “Ibn Sino va Dante” monografiyasi ham o'g'irilib, chop etilsa, a'lo ish bo'lar, italyan kitobxonlari ikki xalq madaniyati va ma'naviyati o'rtasida tig'iz aloqalar uzoq ta'rixlarga borib borib qilinishini yanada teranroq his etar edi.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-646. 43927 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Muxtasar Tojimatova
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manziliimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:45